

KOMIL XORAZMIYNING MUSIQIY FAOLIYATI VA ILMIY QARASHLARI

Bo‘tayeva Nigora Abdumannonovna,
JDPU katta o‘qituvchisi
E-mali: nigorabutayeva1204@com

Annotatsiya. Maqolada Komil Xorazmiyning musiqa nazariyasiga oid qarashlari, ohang va vazn uyg‘unligi, so‘z va kuy mutanosibligi haqidagi fikrlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shuningdek, uning ijodi Xorazm adabiy-madaniy muhitida shakllangan an‘analar bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot davomida shoir va bastakorning estetik tafakkuri, ma‘naviy-axloqiy g‘oyalari hamda san‘atni tarbiyaviy vosita sifatida talqin etishi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: maqom yo‘llari, musiqa nazariyasi, estetik tafakkur, tasavvuf maqomlari, ma‘no, ohang.

Аннотация. В статье на научной основе анализируются взгляды Комила Хорезми на теорию музыки, гармонию мелодии и ритма, а также соотношение слова и музыки. Также его творчество рассматривается в связи с традициями, сформировавшимися в хорезмской литературно-культурной среде. В ходе исследования освещаются эстетическое мышление поэта и композитора, его духовно-нравственные идеи, а также интерпретация искусства как воспитательного средства.

Ключевые слова: макамы, теория музыки, эстетическое мышление, суфийские макаматы, смысл, мелодия.

Abstract. The article provides a scholarly analysis of Komil Khorezmi’s views on music theory, the harmony of melody and rhythm, and the relationship between word and music. His work is also examined in connection with the traditions formed within the Khorezmi literary and cultural environment. The study highlights the poet and composer’s aesthetic thinking, his spiritual and moral ideas, and his interpretation of art as a means of education.

Keywords: maqom paths, music theory, aesthetic thinking, Sufi maqamat, meaning, melody.

Kirish. Komil Xorazmiy she‘riyatida ma‘no va ohang mutanosibligi boisi shundaki, shoir mansub bo‘lgan ijodiy muhit – Xorazm adabiy muhitining ta‘siri bo‘lsa, ikkinchidan, Xorazm maqom yo‘llarini yaratishga qo‘shgan ulkan hissasidir. Xorazm maqomlari Komil Xorazmiy ixtiro qilgan tanbur chizig‘ida uning o‘zi va o‘g‘li Muhammad Rasul Mirzaboshi tomonidan 1886-yilda to‘la yozilgani esa yuqoridagi fikrimiz isbotidir. Masalan, shoir o‘zining “Kel, ey gul yuzli mutrib...” deb boshlanuvchi matla‘li g‘azalida kuy nomlari, musiqa asboblarning nomlarini birma-bir sanab o‘tish barobarida o‘z yoridan shu kuylarni chalib berishini, holiga rahm aylab, vafo qilishini so‘raydi:

Kel, ey gul yuzli mutrib, bu kecha majlis aro soz et,

Burun boshlab “Iroq”u so‘ng maqomi “Rost” og‘oz et.

Yorga xitob bilan boshlanuvchi ushbu baytda shoir nido (*Kel, ey*), talmih (“*Iroq*”, “*Rost*”) san‘atlari orqali gul yuzli yoridan majlis kechasini fayzga to‘ldirishini so‘raydi.

Endi savol tug‘iladi: Xo‘sh, nega shoir dastlab g‘azalda “Iroq” va “Rost” maqom nomlarini keltiradi? Ma‘lumki, “Iroq” maqomi yo‘llarida yaratilgan xalq cholg‘u va

ashula yo‘llari ham o‘ziga xos ohanglarga boy, odatda ayriliq, intizorlik his-tuyg‘ularini aks ettiradi.

Sharq musiqa nazariyasiga oid kitoblarda esa “Rost” maqomining qadimiyligi haqida gapirilib, u bilan bog‘liq bir afsona keltiriladi. Unga ko‘ra, “Rost” maqomi Odam Atodan qolgan. Odam Ato va Momo Havo jannatdan yerga quvilgach, Xudo ularni birini Mag‘ribga, ikkinchisini Mashriqqa jo‘natadi. Odam Ato Momo Havo ishqida sarson-sargardon bo‘lib, uni axtaradi. Go‘yo Odam Atoning chekkan nolasi, “ohu-vohi” rost maqomi pardalaridagi kuydan iborat edi. Shuning uchun musiqa kitobi mualliflari “Rost” maqomini “Ummul-advor” ya‘ni, maqom doiralarning onasi deb hisoblaganlar. “Jumladan, solikning qalbidagi ishq o‘ti bilan mahbubi tomon ruhiy safari ushbu tizimdagi 12 maqom “zanjiriga” ham botiniy anglashiladi. Bunda: “Rost” (to‘g‘ri yo‘l)-tariqat yo‘lini ifodalasa, “Iroq” yo‘l harakati va manzillarining “zabt” etilishini bildiradi. Zero, haj yo‘lida Iroq cho‘llaridan o‘tilgan” [1].

Komil Xorazmiy g‘azalininik ilk baytlarida “Iroq” va “Rost” maqomi nomlarini keltirib, birinchidan, bu maqom yo‘llarining qadimiy ekanligiga ishora qilsa; ikkinchidan, bu maqom ohanglari *oshiq* iztiroblari, ayriliq azoblari, intizorlik tuyg‘ularini ifodalashi bilan ahamiyatli ekanligini aytmoqchi bo‘ladi. So‘z va ohangning mohirona birligi oshiq holatidan xabar beradi. Ushbu g‘azalda Komil Xorazmiy ham mohir shoir, ham musiqa ilmining bilimdoni sifatida namoyon bo‘ladi.

Gahi “Buzurg”, gahi “Dugoh”, gah “Segoh” soz aylab,
Surudi ruhbaxshing birla bazm ahlin sarafroz et [2; 36].

G‘azalning keyingi misralarida “Buzurg”, “Dugoh”, “Segoh” sho‘balarining nomlari sanab o‘tiladi. Komil Xorazmiy g‘azal matlasidan to maqtasiga qadar maqom nomlarini birma-bir keltiradi.

Xo‘sh, shoir nima sababdan maqomlar nomini bu xilda tartiblaydi? “Buzurg”, “Dugoh”, “Segoh” sho‘balariga qaraganda “Iroq” va “Rost” maqomlari hajm jihatidan kattaligi va qadimiyligi bilan ajralib turadi. Ushbu misralarni faqat badiiy san‘atlar va musiqiy terminlar nuqtayi nazaridan tahlilga tortsak, shoir aytmoqchi bo‘lgan falsafaning yarminigina ochiqalay olamiz. Musiqashunos olimlar maqom tarixini o‘rganib, N.Kavkabiylar tasnifiga asoslangan holda “Dugoh” sho‘basi Husayniy maqomida, “Segoh” sho‘basi Hijoz maqomida ekanligini aytishadi. Husayniy va Hijoz maqomlarining tarixi Yoqub (a.s) va Ayub (a.s)ga borib taqaladi.

Husayniy maqom yo‘li *pir-u murshidlik* yo‘li bo‘lsa, Hijoz-Makkai Mukarrama va Madinayi Munavvara shaharlari joylashgan sarhad bo‘lib, yo‘lning asosiy maqsad timsolidir. “Buzruk” nomi nisbatida esa so‘fiylarning kichik va katta olamlarning o‘zaro uyg‘unligi haqidagi qarashlari o‘z aksini topgan. Yuqorida keltirilgan baytlar mazmuni

o‘laroq maqomlar musiqasida ham tasavvuf g‘oyalari in’ikos etilganini fahmlash mumkin [3; 48].

Demak, Haq yo‘liga tushgan solik tasavvuf maqomotlarini o‘zida jamlagan holda (“Buzruk” maqomi), pir-u murshid bilan (Husayniy maqomi – dugoh sho‘basi), Yaratganning uyi – Kaabatullohga (Hijoz maqomi-segoh sho‘basi) yo‘l olishi uning maqomot va kamolotda erishgan oliy martabasidir. Komil Xorazmiy yuqoridagi misralar orqali ayni so‘fiylik yo‘li, tasavvuf g‘oyalariga ishora qilib, komil inson tasvirini chizadi. Ushbu g‘azaldagi go‘zal yor timsolida esa *pirni* nazarda tutib, uning botiniy va ma’naviy go‘zalligini bir-biriga uyg‘un holda tasvirlaydi.

Yana bir misrada shoir yor go‘zalligiga ta’rif berar ekan, uning qayrilgan qoshlarini yoyga o‘xshatadi:

Muqavvas qoshing hasrati jon aro,
Erur o‘ylakim qavsi qurbon aro.

Yorning muqavvas-qayrilgan qoshlari oshiq joniga ozor berishi bilan birga uni qurbon qilishga shaylanayotgan yoyga o‘xshaydi. Yorning go‘zalligini ko‘rib ko‘zlari quvonayotgan oshiq ayni vaqtda o‘z jonini o‘rtayotgan shirin azoblardan iztirob cheksada, mamnun. Oshiq shu yoydan qurbon bo‘lib, shahidlik martabasiga yetishishni o‘ziga oliy saodat deb biladi. Bayt tashbih san’ati asosiga qurilgan bo‘lib, ma’no va badiiyat uyg‘unligining go‘zal na’munasidir.

G‘azalning davomida esa oshiq bu dard, bu iztirobdan ozorlanganligi bois, yor yuzidagi hijobini yechishini istamaydi:

Hijob olma yuzdinki o‘rtanmasun,
Jahon o‘t tushib, ins ila jon aro.

Avvalo, misradagi hijob va yuz so‘zlariga diqqatni qaratsak. Misrada hijob-parda, to‘siq ma’nolarini anglatib kelgan. Yuz esa o‘zida ilohiy go‘zallikni akslantiruvchi ko‘zguvir. Oshiq esa yori yuzidagi hijobini olsa nafaqat jahonga, balki, barcha yaratilgan (insonlar va jinlar) olamiga o‘t tushishini aytadi. Ya’ni yor yuzidagi nur, ilohiy go‘zallik shu qadar kuchliki ko‘rgan ko‘zni, tushgan qalbni yondirmay qo‘ymaydi. Bayt *tashbih, husni ta’lil* san’atining eng go‘zal na’munalaridan biridir.

Yoki, shoir yana bir baytida izhorlarini quyidagicha bayon etadi:

Ne nav’ sanga oshiqi zor o‘lmayin, ey sho‘x,
Ko‘rdum yuzung oyinasida nuri Xudoni.

Tasavvufda chin oshiqning sifati va darajasi u ko‘ngil qo‘ygan narsalarga qarab belgilanadi. Ya’ni oshiqning yaratilganlarni qo‘yib Yaratganga oshiq bo‘lishi bu uning ilohiy ma’rifatga erishganidan dalolatdir. Oshiq tashqaridan qaraganda ma’shuqa (qiz)ga oshiq, ammo uning qalbiga nazar tashlansa, u yorning yuzidagi ilohiy ma’rifatning, go‘zallikning shaydosidir.

Zero, oshiqlik-haqsevarlikning, ma’rifatga shaydolikning oliy ko‘rinishi. Qolgan barcha hollarda soxtakorlik, riyo bo‘lishi mumkin, ammo ishqda, oshiqlikda bu illat bo‘lmaydi. Faqat ishq kishini abadiyatga-baqa olamiga olib boradi [3; 63].

Zulf ostida yuzini ko‘rub shod erur ko‘ngul,

Kim topdi ahli kufrdin iymon bashoratin.

Badiiy adabiyotda, ayniqsa, mumtoz she’riyatda yorning sochlari uning yetuk go‘zallik timsoli sifatida tasvirlanadi. Yorning qora va uzun zulflari oshiqning hajr tuniga, oshiq bo‘ynidagi dorga, yor yuzini berkitguvchi pardaga qiyoslanadi. She’riyatda yetuk taviriy ifodalardan, timsollardan biri bo‘lgan zulf-tasavvuf adabiyotlarida moddiy dunyo, o‘zlikdan uzoqlashish kabi salbiy ma’nolarni kasb etadi.

Yuqoridagi baytda shoir o‘z yorini ishq bobida rahmsiz kofirga qiyoslayapti. Yor yuzidagi parda, oshiq va ma’shuq orasidagi raqib yorning zulfi. Bir kofirning iymonga kirgani haqidagi xabar mo‘min uchun qanchalik shodlik bag‘ishlasa, zulf ostidan yorning yuzini ko‘rgan oshiqning ko‘ngli ham xuddi shu martabaga yetishgandek shodlanadi. Baytda zulf, yuz, kufr, iymon so‘zlari orqali tanosub san’atining badiiy yuksak darajada qo‘llanganiga guvoh bo‘lsak, umumiy baytning o‘zi esa husni ta’lil san’atining go‘zal na’munasidir.

Majoziy ma’noda ushbu bayt yor yuzida Haqning nuri jilvalangan ma’shuqa yuzidagi parda-zulfnung ochilishi oshiq uchun ilohiy ma’rifat tomon ochilgan yo‘l bo‘lib, oshiq va ma’shuq (Alloh) o‘rtasidagi pardaning ko‘tarilishiga ishoradir.

Yetkurdi shodlig‘ yuz ila xati, o‘ylakim,

Xatti barotning mahi sha’bon bashoratin.


Ushbu baytda ma’shuqa diydori oshiqqa nechog‘liq quvonch bag‘ishlagani ifodalanar ekan, uning yuzi sha’bon oyining, yuzidagi xatlari – mayin tuklari esa bamisoli xatti barot – ozodlik xatining bashoratini berishi talqin etilgan. Baytdagi “barot” va “sha’bon” tushunchalari mantiqan bir-biriga chambarchas bog‘liqdir. Chunki Barot kechasi hijriy taqvim bo‘yicha sha’bon oyining o‘rtasida bo‘lib, musulmon ahli bu tunni bayram qiladi. Bu esa baytning ishqiy-irfoniy va hayotiy jihatdan uyg‘un mohiyatga ega ekani isbotidir. Bunda “yuz” va “xat” so‘zlari tanosub, xatti barot – istiora san’atlarini hosil qilgan. Shoir yor yuzini mahi sha’bonga, yuzdagi xatni esa xatti barotga – hijron azobidan ozodlik xatiga o‘xshatib, tashbeh san’ati vositasida teran irfoniy mazmun va go‘zal badiiyat uyg‘unligini ta’minlagan.

Komil Xorazmiy lirikasi bilan chuqurroq tanishib borar ekanmiz, unda shoirning ham dunyoviy, ham diniy ilmda yetuk, chinakam komil ekanligiga yana bir karra ishonch hosil qilamiz. Komil Xorazmiy nafaqat shoir, balki o‘z davrining yirik musiqa nazariyotchisi va amaliyotchisi bo‘lgan. U yaratgan nota tizimi va maqom san’atiga qo‘shgan hissasi tufayli Xorazm musiqa merosi yozma manbalar asosida saqlanib

qolgan. Uning faoliyati o‘zbek milliy musiqa madaniyati taraqqiyotida muhim bosqich hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ibrohimov O. Maqomlar tarixiga doir. O‘zbekiston mumtoz musiqasi.
2. Hayitmetov A. Devon. – T., 1975. – B. 36-b.
3. Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. – Т.: Ёзувчи, 1996. – Б. 48.
4. Fitrat A. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. – Toshkent.



UNIVERSITY
OF BUSINESS
AND SCIENCE